

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA ILMIIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Buranov Baxtiyor Mallayevich

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

91-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash, fizika fanini o'qitish jarayonining psixologik xususiyatlari, fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini o'stirish haqida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: fizika fani, ilmiy dunyoqarash, psixologik xususiyatlar, o'qitish jarayoni, ijodiy fikrlash.

Kirish: Maktabda har bir predmet o'qituvchisi dars mobaynida o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatini e'tiborga olishi kerak. Bu esa o'quvchining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishni talab qiladi. Ta'lim jarayonida ba'zan shunday hol sodir bo'ladiki, o'quvchilarning ongi aqliy faoliyatning yuksak shakli bo'lgan abstrakt tafakkuriga, tushunchalarga tayanib fikr yuritishga tayyor bo'lmay, ilmiy tushunchalarning mag'zini chaqish va g'oya yuritishda tushunchalar bilan ish ko'ra olish faoliyatiga hissiy obrazlar zaxirasi, sezgi, idrok va tasavvurlar zaxirasi yetishmay qoladi. Ta'limdagi juda ko'p nuqsonlar shu sababli sodir bo'lsa kerak, bilimdagi kamchiliklarning sodir bo'lishiga ham shu sabab bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Fizikani o'rganishga o'qituvchi qiziqishni tarbiyalash va takomillashtirishga imkon yaratadigan sharoitlarni bilishi zarur. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilar o'rganishga qiziqishni shakllantirish niyatida turli xil uslublarni foydalanadilar. Yaxshi tayyorlangan namoyish tajribalaridan foydalanish va mustaqil eksperiment o'tkazish, uy tajribalari va kuzatishlarni tashkil qilish, darsda olingan nazariy bilimlarning amalda foydalanishini ko'rsatadigan masalalar yechish o'quvchilarda yuqori qiziqish uyg'otadi. Tushunchalar atrof borliqni o'rganish vositasi tarzida xizmat qiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali faoliyatidan biri — o'quvchilarda fizik tushunchalarni rivojlantirish asosiy o'rin egallaydi. Bu eng murakkab faoliyatlardan biri hisoblanib, u falsafa, mantiq, psixologiya va pedagogikadan chuqur bilimga ega bo'lishni talab etadi.

Natijalar: Umumiy ta'lim tizimida o'qitishning asosiy didaktik vazifalaridan biri bo'lib, o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash hisoblanadi. Fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni takomillashtirishga yuqori imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun ham «Olamning fizik manzarasi», -deb aytilishi, ushbu narsadan dalolat beradi. O'zining mazmuni va o'rniga ko'ra, olamning fizik manzarasi, eng umumiy manzara bo'lgan «Olamning tabiiy ilmiy manzarasi» ning asosini tashkil qiladi. Bu manzara o'ziga barcha tabiiy fanlarni qamrab olgan. Olamning fizik manzarasi o'ziga fizikaning barcha bo'limlarini qamrab olib, tabiatdagi mavjud hodisalarni insonlar tomonidan tushuntirilishi va bu asosida olamga aloqador bo'lgan tasavvurlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham, uning tarkibiy qismlari bo'lib: «Olamning mexanik manzarasi», «Olamning elektrodinamik manzarasi», «Olamning kvantoviy-maydon manzara» lari sanaladi.

Muhokama: Pedagogika umumiy o'rta ta'limida fizika fanini o'qitishning asosiy metodologik vazifasi bo'lib, o'quvchilarda olamning zamonaviy fizik manzarasiga taalluqli tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun, quyi kurslardan boshlab, o'quvchilarga fizikaning metodologik masalalari to'g'risida tushunchalar berib borish kerak. Ularga misol qilib, quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Olamning birligi va moddiyligi. Hozirgi ilmiy nuqtai nazarga ko'ra, bizni o'rab turgan olamda materiyaning turli-tuman shakllari mavjud. Olamning birligi uning moddiyligida. hodisalarning o'zaro bog'liqligida materiya harakat qonunlarining umumiylikida deb qaraladi. Fizika nuqtai nazaridan, materiyaning xilma-xilligini, asosan, ikki turga - modda va maydon ko'rinishga keltiriladi. Modda - materiyaning atom - molekulyar va plazma ko'rinishdagi turidir.

2. Materiyaning harakati. Harakat, materiyaning asosiy xossasi va uning yashash shakli bo'lib, uning o'zi kabi yo'qolmaydi va yo'qdan bor bo'lmaydi, balki bir turdan ikkinchisiga o'tadi. Materiya harakatining fizikaviy shakllariga quyidagilar kiradi: mexanik, issiqlik, elektromagnit, yadroviy, elementar zarralarning o'zaro aylanishlari va

boshqalar. Harakat manbalarining aniq shakli bo'lib, moddiy ob'ektlarning o'zaro ta'sirlari hisoblanadi. Hozirda fizikaga ma'lum bo'lgan tabiatdagi gravitatsion, elektromagnit, kuchsiz va kuchli fundamental o'zaro ta'sirlar mavjud bo'lib, ularni birlashtirish ustida katta ishlar olib borilmoqda.

Xulosa: Xulosa sifatida shu aytish mumkinki, fizik tushunchalarni rivojlantirishga o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtirish yuqori ahamiyatga ega. Buni amalga oshirishda mashqlar va laboratoriya ishlarini bajarish ham asosiy ahamiyatga ega. Fizik tushunchalarni rivojlantirishning yuqorida aytib o'tilgan bosqichlari barcha vaqt ham o'sha tartibda va hammasi to'liq bajarilavermaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. No'monxo'jayev A. va boshq. Fizika. Akademik iitseyiar uchun. 1—2-3- qismlar. —G.: O'qituvchi. 2002.
2. Xalilbek o'g'li X. E., Bobirxon o'g'li U. B., Xalimjonov E. X. LOGISTIK KORXONALAR FAOLIYATINI O'RGANISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 89-92.
3. Xalilbek o'g'li X. E. Motor moylarida bo'ladigan o'zgarishlar va ularning xizmat qilish davri //Мехатроника va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 321-323.
4. Jo'raev M. Fizika fanini o'qitishda statistik g'oyalar. - T.: O'qituvchi. 2004.